


Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**EFFECTIVENESS OF INTERACTIVE TEACHING METHODS IN ENGLISH LANGUAGE INSTRUCTION**

Aziza Kholmukhamedovna Saitkhanova
Senior Lecturer, Faculty of Translation Studies
Uzbekistan State University of World Languages
azizasaidxonova@gmail.com
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Interactive method, communicative approach, English language teaching, effectiveness, competence, innovative methods.

Received: 24.11.25

Accepted: 25.11.25

Published: 26.11.25

Abstract: This scientific article provides a theoretical analysis of the effectiveness of integrating interactive learning methods into the English language teaching process. Compared to traditional approaches, interactive methods (role-plays, group discussions, simulations) place students at the center of the learning process, ensuring their active participation (Brown, 2001; Xolmatova, 2020). The study concludes that interactive teaching is a priority methodological direction that significantly increases the effectiveness of language education and meets the demands of modern education.

INGLIZ TILINI O'QITISHDA INTERAKTIV O'QUV METODLARINING SAMARADORLIGI

Aziza Xolmuxamedovna Saitxanova
Katta o'qituvchi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Tarjimonlik fakulteti
azizasaidxonova@gmail.com
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Interaktiv metodlar, kommunikativ yondashuv, Ingliz tilini o'qitish, samaradorlik, kompetensiya, innovatsion metodlar.

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola ingliz tilini o'qitish jarayoniga interaktiv o'quv metodlarini joriy etishning samaradorligini nazariy jihatdan tahlil qilishga bag'ishlangan. An'anaviy usullar bilan solishtirganda, interaktiv metodlar (rolli o'yinlar, guruh munozaralari, simulyatsiyalar) o'quvchilarni o'quv jarayonining markaziga qo'yadi va

ularning faol ishtirokini ta'minlaydi (Brown, 2001; Xolmatova, 2020). Tadqiqot xulosalari shuni ko'rsatadiki, interaktiv o'qitish til o'rgatish samaradorligini sezilarli darajada oshiruvchi va zamonaviy ta'lim talablariga javob beruvchi ustuvor metodik yo'nalishdir.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Азиза Холмухамедовна Саитханова

Старший преподаватель, факультет переводоведения

Узбекистанский государственный университет мировых языков

azizasaidxonova@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Интерактивные методы, коммуникативный подход, преподавание английского языка, эффективность, компетенция, инновационные методы.

Аннотация: Данная научная статья посвящена теоретическому анализу эффективности внедрения интерактивных методов обучения в процесс преподавания английского языка. По сравнению с традиционными методами, интерактивные техники (ролевые игры, групповые дискуссии, симуляции) ставят обучающихся в центр учебного процесса и обеспечивают их активное участие (Brown, 2001; Xolmatova, 2020). Выводы исследования показывают, что интерактивное обучение является приоритетным методическим направлением, которое значительно повышает эффективность преподавания языка и отвечает требованиям современного образования.

Kirish. Chet tillarni o'qitish metodikasi doimiy rivojlanishda bo'lib, hozirgi globallashuv davrida tilni faqatgina grammatik qoidalar va lug'at yig'indisi sifatida emas, balki kommunikatsiya vositasi sifatida egallashga e'tibor kuchaymoqda. An'anaviy usullar (Grammatik-tarjima metodi) ko'pincha passiv bilimlarni shakllantirib, o'quvchilarda tilni real muloqotda qo'llashga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqaradi (Brown, 2001).

Shu nuqtai nazardan, ta'lim jarayoniga interaktiv o'quv metodlarini joriy etish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi (Axmedova, 2021). Interaktiv metodlar talabani passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Bu metodlar o'quvchilarni o'zaro hamkorlikka, fikr almashishga va tilni amaliyotda sinab ko'rishga undaydi, bu esa tilni samarali o'zlashtirish uchun zaruriy shartdir (Xolmatova, 2020).

Karimova (2019) ta'kidlaganidek, chet tillarni o'qitishda kommunikativ yondashuv ustuvorligi tan olinar ekan, interaktiv metodlar mazkur yondashuvning asosiy quroli hisoblanadi. J. Harmer (2007) va D. Nunan (2003) kabi xalqaro metodistlarning ishlari zamonaviy til o'qitish amaliyoti faqatgina nazariya emas, balki real vazifalarga asoslangan amaliyotga tayanishi kerakligini ko'rsatadi. Ushbu metodlarning ta'lim samaradorligiga ta'sirini tahlil qilish zamonaviy o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma vazifasini bajarishi mumkin.

Til o'qitishda interaktiv metodlar — bu o'quvchilarni dars jarayoniga faol jalb qiluvchi, o'zaro muloqot, hamkorlik va amaliy mashg'ulotlar orqali til ko'nikmalarini shakllantiruvchi metodlardir. Bunday metodlar o'quvchilarni faol ishtirokchiga aylantiradi va tilni real muloqot vositasi sifatida ishlatishga o'rgatadi. Interaktiv metodlarga quyidagilar kiradi:

1. Rol o'ynash (Role-play) - o'quvchilar hayotiy vaziyatdagi rollarni ijro etishadi (mijoz–sotuvchi, shifokor–bemor, sayyoh–gid va h.k.).
2. Juftlikda ishlash (Pair Work) - o'quvchilar ikki kishilik juftlikda topshiriq bajaradilar.
3. Guruhli muhokama (Group Discussion) – 3-6 kishilik kichik guruhlar berilgan mavzu ustida fikr almashadi.
4. Aqliy hujum (Brainstorming) - Guruh bo'lib berilgan mavzu yuzasidan talabalar fikrlar bildiradilar, cheklovlersiz.
5. Texnologiyadan foydalanish (Digital tools & apps) - Interaktiv platformalar, videodarslar, online testlar va mobil ilovalar orqali o'qitish.
6. Axborot almashinuvi (Information Gap activities) - Har bir o'quvchida boshqa o'quvchida yo'q ma'lumot bo'ladi, ular uni topish uchun savol beradi.
7. Muammoli vaziyatlar yechimi (Problem-solving tasks) - O'quvchilar vaziyatga mos yechim topishadi, til vositasida muloqot qiladilar.
8. Interaktiv oyinlar (Language games) – O'yin asosida tashkil etilgan topshiriqlar (pazl, viktorina, krossvord, domino).

Interaktiv metodlar o'quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi, motivatsiyani oshiradi, kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi, darsni jonli va amaliy muhitga yaqinlashtiradi, ko'nikmalarni kompleks shakllantiradi (tinglash, so'zlash, yozish, o'qish)

Ushbu tadqiqot deskriptiv (tavsifiy) va nazariy-analitik tahlil metodologiyasiga asoslangan bo'lib, u tanlangan ilmiy manbaning mazmunini chuqur o'rganish va sintez qilishni o'z ichiga oldi.

Xolmatova (2020) va Axmedova (2021) ishlarida ko'rsatilganidek, interaktivlikning faol ishtirok, hamkorlik va kreativlikni nazarda tutuvchi lokal kontekstdagi talqinini aniqlash. Karimova (2019) va Brown (2001) tomonidan ilgari surilgan tilni muloqot qilishga o'rgatish prinsiplari tahlil qilindi. Bu yondashuv tilni o'rganish maqsad emas, balki vosita ekanligini

ta'kidlaydi. Harmer (2007) va Nunan (2003) ning darsliklarida berilgan "bajarish orqali o'rganish" (learning by doing) tamoyili asosida role-play (rolli o'yin), simulyatsiya, guruhda muammo yechish (Problem-Solving) kabi interaktiv texnikalar tasniflandi.

G'arb (Harmer, Brown, Nunan) va O'zbekiston (Axmedova, Karimova, Xolmatova) mualliflarining interaktivlik va kommunikativ yondashuv borasidagi qarashlari qiyoslandi. Natijada, har ikkala metodologik maktabning interaktiv metodlarning samaradorligini tan olishda yaqinlashuvi aniqlandi.

Interaktiv metodlar ta'limni o'qituvchi markazidan (teacher-centered) o'quvchi markaziga (learner-centered) o'tkazadi (Brown, 2001; Harmer, 2007), bu esa tilni passiv bilishdan faol qo'llashga o'tishni ta'minlaydi.

Guruh ishlaridan foydalanish, rolli o'yinlar va diskussiyalar o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi, tilni o'rganishga bo'lgan ichki motivatsiyani oshiradi va o'zaro yordam muhitini yaratadi (Xolmatova, 2020; Nunan, 2003).

Interaktivlik innovatsion yondashuvning bir qismi bo'lib, Axmedova (2021) ta'kidlaganidek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) bilan integratsiyalashuv uchun qulay sharoit yaratadi.

Ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonida interaktiv texnikalarni (simulyatsiya, munozara, loyiha ishi) amaliy qo'llashga oid modullarni yanada kuchaytirish lozim.

Maktab va OTM darsliklarida faqat nazariy material emas, balki kommunikativ vaziyatlarga asoslangan interaktiv topshiriqlar ulushini oshirish tavsiya etiladi.

Yakuniy xulosa shuki, ingliz tilini o'qitishda interaktiv o'quv metodlaridan keng foydalanish til ta'limi sifatini oshirish va o'rganuvchilarni globallashtirgan dunyoda samarali muloqotga tayyorlash uchun asosiy yo'nalishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Axmedova, Z. T. (2021). Ingliz tilini o'qitishda innovatsion metodlar. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.

2. Karimova, D. Sh. (2019). Chet tillarni o'qitishda kommunikativ yondashuv. Samarqand: SamDU nashriyoti.

3. Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching (4th ed.). London: Pearson Longman.

4. Brown, H. D. (2001). Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy (2nd ed.). White Plains, NY: Longman.

5. Nunan, D. (2003). Practical English Language Teaching. New York: McGraw-Hill Education.

6.Xolmatova, M. X. (2020). Til o'rgatishda interaktiv metodlardan foydalanish: nazariya va amaliyot. Buxoro: BDU Matbaa markazi.